

## ZULFIYA-MATONAT TIMSOLI

Fayzullayeva Gavhar

JDPI talabasi

O'zbek she'riyatini o'zining eng sara asarlari bilan boyitgan, asarlarida inson hayotidagi voqealarni haqqoniy tasvirlashi bilan kitobxon e'tirofini qozongan, tarix sahifalarida o'zining matonati, sadoqatini muhrlagan shoira Isroil Muslimov qizi Zulfiyadir.

Zulfiya Isroilova 1915-yilning 1-martida Toshkentning O'qchi mahallasidagi Isroil degrez xonadonida tug'ilgan.

Bo'lajak shoira yoshligidan o'zining iste'dodi bilan ajralib turgan.Uning shoira sifatida tanilishiga oilaviy muhitning, onasining, ta'siri beqiyos bo'lgan. Shoira xotiralaridan birida:« Agar iste'dodim bor bo'lgan bo'lsa,uning chashmasi-onam.Agar adabiyot ahliga bir kaft yanglig' she'riy hosil tutgan bo'lsam,uning urug'ini avval qalbinga onam sochganlar»-degan edi.Ko'rinib turibdiki,Zulfiya ijodida onasining o'rni nihoyatda katta ekan.

Zulfiya boshlang'ich maktabni bitirgach,xotin-qizlar pedagogika bilim yurtida tahsil oladi(1931-1934-yillar).U yerda Shukur Sa'dulla boshchiligidagi adabiy to'garak bo'lib, Zulfiya unga o'zining ijod namunalari bilan qatnashardi.«Men ish qizi»deb nomlangan dastlabki she'ri Shukur Sa'dulla vositasida «Ishchi»gazetasida 1931-yil 17-iyulda bosib chiqarilgan.Ko'p o'tmay u o'zining ilk to'plamini nashr ettirdi.Ushbu to'plamni «Hayot varaqlari»deb nomladi(1932-yil).

Zulfiya ko'plab adabiy uchrashuvlarga qatnashardi.Shunday uchrashuvlardan birida uning yuragi o'zgacha bir tuyg'uni his etadi:«Men,-deb yozadi Zulfiya,-Hamid Olimjonni ilk daf'a o'sha yilda ko'rganman.Biz,yigirma chog'li adabiyot ixlosmandlari, seminar mashg'ulotlariga yig'ilardik.Mashg'ulotlarni Hamid Olimjon bilan Uyg'un boshqarardi.Ular o'zlarini nihoyatda erkin tutardilar...Yashirib o'tirmayman. Hamid Olimjon ilk ko'rishuvlardan oq ko'zimdan ko'nglimga

o'tdi.Men juda yosh hissiyotim bilan uning keng qalbi,ulkan iqtidorini tuydim»(N.Karimov).

Shunday qilib ularning ijod yo'llari umr yo'llari bilan 1935-yil 27-iyul kuni birlashdi.Afsuski,taqdirning achchiq zarbasi shoira hayotini chetlamay o'tmadi.1944-yil H.Olimjon Yozuvchilar uyushmasidan qaytayotganida avtohalokatga uchrab,bu dunyoni erta tark etdi.Ikki farzandning onasi hisoblangan Zulfiya 29 yoshida beva qoldi.«Nodira»taxallusi bilan ijod qilgan shoira Mohlaroyimning ham taqdiri shunga o'xshash bo'lgan edi.U 30 yoshida Amir Umarxondan ayrilgandi.Lekin ularga Alloh tomonidan berilgan buyuk iste'dod tufayli boshlariga tushgan kulfatlardan «qaddi bukilmadi».Aksincha, Zulfiya o'zining sabr-qanoati,matonati,sadoqati tufayli o'zbek ayollariga munosib o'rnak bo'la oldi.U Hamid Olimjon vafotidan keyin qayta turmush qurmadi.Hayotini ijodga,farzandlari tarbiyasiga bag'ishladi.Oradan ko'p vaqt o'tmay Zulfiya“Saodat” Jurnalida bosh muharrir bo`lib ishladi (1953-1980), Osiyo va Afrika yozuvchilari Harakatida faol qatnashdi, mamlakatimiz vakili sifatida Hindiston, Yugoslaviya,

Shrilanka, Misr, Birma, Avstraliya kabi mamlakatlarni ko`rdi. Zulfiyaga qo`sha-qo`sha mukofotlar berildi, bu uning el oldidagi qator xizmatlari uchun edi. U respublika davlat mukofoti laureati bo`ldi. «Saylanma»si uchun sobiq SSSR davlat mukofoti laureati,O`zbekiston xalq shoirasi, xalqaro «Nilufar» mukofoti, Bulg'oriyaning «Kirill va Mefodiy» ordeni sohibasi kabi yuksak unvon va martabalarga sazovor bo`ldi. Unga Mehnat qahramoni unvoni va ko`plab orden,medallar berildi.

O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov «Sizni sog'indim, Zulfiya opa!»maqolasida shoirani shunday eslaydi:«Bugun tongda Zulfiya opani esladim.Naqadar oliyjanob,naqadar nuroniy ayol edilar.O'ylab qaragam, Zulfiya opa o'zlarining she'rlari bilan,iboli va hayoli fe'li atvori bilan,pokiza e'tiqodi-yu,zukko fikrlari bilan mening hayotimdan katta o'rin olgan,ma'naviy dunyomning katta bir qismini tashkil qilgan inson bo'lgan ekan...»

O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov «Ajoyib shoira opamiz!»deya eslaydi:«Fazilatlar sarchashmasida Zulfiya opaning shoiralik iqtidori turar ekan,bu iqtidor shoiramizning nomini jahonga tanitganoliy belgidir.Zulfiya opa suhbatlarida,maqolalarida o'zlarini g'oyatda kamtarin tutib,kam ijod qilganliklarini chiroyli bir nadomat bilan aytib turadilar...»

Zulfiya ijodiga hijron ohangi Hamid Olimjon hayot vaqtidayoq kirib kelgandi.Bu ohang «Hijron»she'rida, «Uni Farhod der edilar» dostonida, Hamid Olimjon tomonidan tahrir qilinib,bosmaga tushirilgan.Xuddiki,shoira boshiga tushgan kulfatlarni oldindan sezgandek...

Shoira ijodiyotiga nazar soladigan bo'lsak, Hamid Olimjon vafotidan keyin shoiraning ichki iztiroblari she'rlarida aks etibgina qolmay,umr yo'ldoshiga bo'lgan sevgisi, sadoqati,irodasi asarlari mohiyatini tashkil etdi.

1944-yilda yozilgan:

Uyda bo'g'ildimu chiqdim eshikka ,

Yer ustiga cho'kkan oqshomgi tuman ,

Go'yo ko'zlarimga boqqanday tikka

Yashnardi bir yulduz xuddi sensimon .

Xuddi senday uzoq va senday yorqin

Avji chaqnaganda so'nadi u ham,

Bir yupanch : sevgimning osmonidan

O'chmasdan yonasan , ey go'zal hamdam !

«Yulduz»she'rida shoira osmondagi yakka charaqlab turgan yulduzni Hamid Olimjon siymosini ko'radi va undan sevgi oamonida hechqachon so'nmasligini «iltimos qiladi»

Darhaqiqat,shoira bosib o'tgan uzoq mashaqqatli yo'l,umr yo'ldoshiga bo'lgan sevgisi,uning sadoqati haqiqiy o'zbek ayoli matonati timsoli bo'lib tarixga

muhrlandi. Dog'iston adibi Rasul Hamzatov ta'biri bilan aytganda: «Zulfiya-o'z xalqining taqdiri bilan qo'shilib ketgan ijodkordir». Haqiqatdan ham u hayotdagi hamma narsa haqida «ayol qalbi bilan tinglab, ayol ko'zi bilan ko'rib, idrok etib, ayol so'zi bilan tasvirlaydi, ayol ovozi bilan kuylaydi!»

Bahor ilk kunida, sahar chog'ida,

Derazam tagida o'rik gullari.

Qalbim bir entikib, bir shodon bo'lib,

Shoira, qizingiz sizni esladi,

Yana o'rik oppoq bo'lib gulladi.

---

Men ham shu bahorni kuyladim ko'p bor,

Ruhingiz shod etib, takror va takror.

Siz ayol, siz ona va vafoli yor,

Bugun bedor qalbim sizni qo'msadi,

Yana o'rik oppoq bo'lib gulladi

---

Siz yurtim jamolin ko'p kuyladingiz,

Sadoqat, vafodan ko'p so'yladingiz.

Ayol buyukligin isbotladingiz,

Bu kun bashariyat sizni esladi,

Yana o'rik oppoq bo'lib gulladi.

---

To hayot ekanman sizni eslayman,

Har bahor chog'ida sizni qo'msayman.

Oq qog'oz, qalamim hech kamsitmayman,

Mehri bedorligin sir tutolmadi,

Yana o'rik oppoq bo'lib gulladi.

Surxondaryo viloyati Sherobod tumani 7-umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi Qurbonova Mehriniso

Foydalanilgan manbalar:

1. Ziyo.uz sayti
2. Darakchi.uz sayti
3. Uzsmart.uz sayti
4. «Bahor keldi seni so'roqlab...» Zulfiya. Toshkent.2015